

**GLOBAL JARAYONLAR DAVRIDA AXBOROT
JADALLASHUVINING
MILLIY AXLOQIY QADRIYATLARGA TA'SIRI**

Mamadaliev Nemat Qaxorovich Fargona
jamoat salomatligi tibbiyot instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasida dosenti.
falsafa fanlari nomzodi.

Annatsiya: Maqolada hozirgi globallashuv sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga ko'rsatilayotgan turli axboriy ta'sirlar, jumladan, milliy axloqiy qadriyatlarimizga, yoshlar tarbiyasiga ni har xil destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalash, yoshlar tarbiyasi borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: glaballashuv, axloq, milliy qadriyat, milliy o'zlik, g'oya, gumanizm, tinchlik, terrorizm, transmilliy, kiber jinoyat, huquq, erkinlik, g'oya, mafkura.

Bugungi dunyoda globallashuv jarayonlari davrida axborot oqimi jadallashuvining milliy axloqiy qadriyatlarga munosabatni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Negaki, ushbu mazkur jarayon milliy axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashning omillari va usullarini ishlab chiqishni kun tartibiga eng muhim dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Hozirgi kunda boshqa soha tarmoqlariga qaraganda Internet tizimi keng tarqalishi natijasida o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi bilan birga jamiyat milliy axloqiy qadriyatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Hozirgi zamon hamma narsaga ochiq ko'z bilan qarashni, inson oliy maqsadlari yo'lida fidoiy, irodali va qat'iyatli bo'lishni talab etmoqda. Shu bois ham yurtdoshlarimiz, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlod ongida hozirgi murakkab va tahlikali hayot xaqida noto'g'ri tasavvurlar paydo bo'lmasligi kerak. Buning uchun ota-onalar, muallim va ustoz murabbiylar, ma'naviyat sohasi xodimlari bu xaqda aziz farzandlarimizning pok qalbi va ongini yot va zararli ta'sirlardan asrash uchun

kurashishimiz, axborot oqimi jadallashuvi sharoitida milliy axlokiy kadriyatlarni mustahkamlash omillarini izlab topish va uning samarasi va ta'sirchanligini oshirish xaqida ko'proq o'ylashimiz zarur.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoev – “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari” bo'yicha videoselektor yig'ilishida “Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan”ligini ta'kidlab o'tdi. [1] Bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surayotganligi, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashtirish jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga engil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash zarurligini, loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tdi.

Axborotning milliy axloqiy qadriyatlarga salbiy oqibatlarini hisobga olish va shu asosda taxlil-tadqiq qilish zarurdir. Globallashtirish davrida kompyuterlashtirish shunday oqibatlarga olib keladiki, insonlarning bo'sh vaqtlari, shaxsiy hayoti, xulq-atvori, kayfiyat va boshqa barcha insoniy ko'rinishlar beayov, rahm-shafqatsiz ravishda va zo'ravonlik bilan bir qolipga solinadi. “Eng yangi axborotlashuv texnikasi,-deb yozadi N.S. Myullert,-nafaqat har bir insonni diqqat markaziga olish, balki har bir insonni hayot, faoliyat, tafakkur doirasidan chiqarib tashlash imkoniyatini beradi. Uning vositasida jamiyatni, kolaversa, xar bir insonni ipsiz urmab-chirmab olish, jism-joni va

ruhi, ongi, tafakkuri ustidan hukmronlik qilish imkoniyati paydo bo'lishi kundek ravshan" [2]

Axborotlashtirishning salbiy oqibatlari xaqida gap yuritilganda tilga olingan "salbiy oqibatlar" iborasi qat'iy ta'rif-tavsif emas, balki taxlil natijasida yuzaga keluvchi shunchaki izohlovchi nom ekanini esda tutish kerak. Masalan, axborotlashtirish, bir tomondan, ba'zi bir kasb egalarini yo'qqa chiqarib, unga barham bersa, ikkinchi tomondan, yangi kasblarga ehtiyoj tug'diradi. Shuningdek kompyuterlashtirish rasionallikning yangi turi shakllanishiga, xususan, odamni yana ham ko'proq texnosfera unsuriga (ya'ni Xaydegger iborasi bilan aytganda "postav" Yestell) aylantiradi. Ammo, shu bilan birga, har bir davlat axborotlashtirish sohasida jahon mehnat taksimotiga kirish hamda mustaqil rivojlanish masalarini o'z ichiga uyg'un xolda olgan mustaqil siyosatini ishlab chiqishni zarurligi o'z-o'zidan ayon bo'lmoqda.

Albatta davlat manfaatlari axborot infratuzilmasining uyg'un rivojlanishi, shaxs va fuqarolarning axborot olish va undan davlat suverenteti va xududiy yaxlitligiga daxl etmagan xolda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida foydalanish borasidagi konstitusion xuquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, qat'iy xuquqiy tartibni o'rnatish, teng xuquqli va o'zaro manfaatli halqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshi ma'lumotni o'zlashtirish va zararlisini rad etish uchun har bir shaxsning ongi rivojlangan, dunyoqarashi keng, uning o'zi esa mustahkam irodali bo'lishi kerak. Har bir mamlakat axolisining asosiy qismi esa bunday imkoniyatga ega emas. Shuning uchun axborot-psixologik barqarorlikka birinchi o'rinda axborot tarqatuvchilar ega bo'lishi shart bular: davlat tuzilmalari xizmatchilari, jurnalistlar, pedagoglar, jamoat tashkilotlari xodimlari va boshqalar.

O'zbekistan Respublikasi Prezidenti, Sh. M. Mirziyoev, ma'rifatparvarlik biz uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagani, aql- zakovat, yuksak

ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo'yilgan maksadlarga erisha olishimiz, yurtimizda doimo farovonlik va taraqqiyot qaror topishi, agar bu muammo echilmas ekan barcha harakatlarimiz, toat-ibodatlarimiz qiymati yo'qolishi, kelajak ham, farovan hayot ham bo'lmasligini ta'kidlagan. [3]

Xulosa qilib aytganda, bugungi axborotlashuv asrida muammolar ham globol ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda tinchlikni va xalqaro axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi hozirgi zamon xalqaro munosabatlarida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Bugungi davrdagi mavjud xolat xalqaro axborot xavfsizligining ko'p qirraliligini va yalpi xarakterini xamda har bir alohida davlat axborot xavfsizligining butun xalqaro hamjamiyat axborot xavfsizligi bilan uzviy bog'liq ekanini yaqqol tasdiqlaydi. Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, Prezidentimiz dunyo axborot xavfsizligiga rahna solishi mumkin bo'lgan omillar xaqida qator yillardan beri ogohlantirib, jahon hamjamiyati e'tiborini mazkur muammoga qaratib kelmokda. Shunday ekan, xalqaro hamjamiyat bunday axborot tahdidlaridan muhofazalanish uchun qandaydir mexanizmga egami? Xalqaro miqyosda qabul qilingan qarorlarning hayotga to'la tatbiq etilmayotganligi taraqqiyot yo'liga to'g'anoq bo'layotgan bo'lsa, axborot tahdidlar ortib borayotganiga qaramay axborot xavfsizligi masalasida dunyodagi qarashlar bir-biriga mos tushmayotgani anchagina muammolarga sabab bo'lmoqda. Axborot oqimi jadallashuvining milliy axloqiy kadriyatlarga ta'siri bilan birga, yashayotgan asrimizda tinchlik va xavfsizligimizga tahdidlar faqat xalqaro urush va nizolarni emas, terrorizm, ommaviy qirg'in qurollari, uyushgan jinoyatchilik va zo'ravonlikni qolaversa, qashshoqlik, o'limga olib keluvchi yuqumli xastaliklar, atrof-muhit bilan bog'liq muammolarga ham e'tibor qaratishimiz lozim.

Axborotlashgan davrda mamlakatimizda milliy axloqiy qadriyatlarga nisbatan xar bir fuqaroda, ayniqsa yoshlar ongida tarbiya, ma'naviy-ruhiy solohiyatni, shakllantirish umumma'naviy yuksalish uchun asosiy mezon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 y 19 yanvar kuni "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada

davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi.

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" 2017y. 98 bet.

3. Myullert N.R., Solle A., Gefers S., Junk R. Kompyuteri delayut gluxonemimi. Reginton. 1987. 87 bet

4. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovan yashaylik. Toshkent "O'zbekiston" 2023y.

5. Mamadaliev N.Q. "Axloqiy madaniyatning milliy va umuminsoniy tamoyillari". Milliy goya targ'iboti texnologiyalari: nazariy va amaliy masalalar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent-2015y 193-197 betlar.

6. Mavlanov B.N. Globallashuv va ma'naviy taraqqiyot. Toshkent. "Adolat" 2018y

7. Milliy taraqqiyotga ta'sir etuvchi omillar. Toshkent. "Ma'naviyat" 2015 y